



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



31 ОКТЯБР
№33

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 33-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
33-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
33-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-8**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 33-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 24 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Hojiraxmatova Olmaxon Tursunovna

YOSHLARNING DUNYOQARASHI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY
ADABIYOTNING O'RNI 7

2. Asatjanova Iroda Maqsudbek qizi

OYDIN HOJIYEVA SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI 9



АДАБИЁТ

YOSHLARNING DUNYOQARASHI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI

Hojiraxmatova Olmaxon Tursunovna
Farg'ona viloyati yuridik texnikumi
Axborot resurs markazi raxbari

Annotatsiya: maqolada yoshlarning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirishda badiiy adabiyyotning ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlari: badiiy adabiyot, dunyoqarash, tafakkur, yoshlar.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga e'tibor dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Chunki yurtimiz taraqqiyoti va kelajagini yoshlar ta'minlaydi, ular mamlakatni taraqqiy ettirish estafetasining davomchilarigina emas, balki yaratuvchilari va bunyodkorlari sifatida mamlakat kelajagi uchun javobgar bo'ladilar. Shu bois, yosh avlodning milliy ongini va axloqiy sifatlarini kamol toptirish, ularda ilg'or ilmiy dunyoqarash, g'oyaviy e'tiqodni, chuqr bilim va mehnatsevarlikni tarbiyalash lozimdir.

Yuksak axloqiy sifatlarni yoshlar ongiga har tomonlama singdirish, ularning siyosiy-ijtimoiy hayotda o'z o'rinalarini topishlari uchun komil inson qilib tarbiyalash davrimizning zaruriy talabi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada badiiy adabiyyotning ham o'rni beqiyos.

Badiiy adabiyot insonlarning dunyoqarashini, xatti-harakatlarini, ularning jamiyatdagi mavqeい va o'rnini, ijtimoiy hodisalarini aks ettiradi. U insonning tafakkuri taraqqiyotida, manaviy olami kamolotida juda katta rol o'ynaydi. Badiiy adabiyyotda xoh salbiy hodisalar, xoh ijobiy voqealar tasvirlanmasin, barchasi inson ongida hayotga, voqe-a-hodisalarga nisbatan munosabat uyg'otadi. Adabiyyotning hayotiylik ildizi xuddi ana shu xususiyatlarga borib taqaladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, adabiyot yoshlarda milliy ong va dunyoqarashni kamol toptirishda juda katta imkoniyatlarga ega. Yoshlarni badiiy ijod durdonalari bilan tanishtirish barobarida unda tasvirlangan voqelik ta'sirida estetik qarashlar bilan bir qatorda dunyoqarashni va milliy ongni tarbiyalaydi. Chunki adabiy materiallarda aks ettirilgan ijtimoiy voqelik, asar qahramonlari xarakteridagi ijobiy xislatlar va vatanparvarlik, xalqparvarlik xususiyatlari o'quvchilarga estetik zavq bag'ishlash bilan bir qatorda ularda milliy ongni ham kamol toptirishga xizmat qiladi. Badiiy asarlarda aks ettirilgan voqealarda xalqimizning boy tarixiy o'tmishi, madaniyati va o'ziga xos qadriyatları, ma'naviyati aks etgan bo'lib, bu asarlarni o'rganish barobarida o'quvchilarda o'z xalqiga nisbatan faxrlanish tuyg'ularini kamol toptirish va faxr tuyg'ulari asosida o'zbekona insoniy fazilatlarni, xalqiga muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash mumkin.

Xalqimizga xos har qanday ezgu amallarning badiiy tasviri shubhasiz o'quvchilarda o'zlikni anglash va shu tarzda milliy ongni tarbiyalash imkonini beradi. Chuqr falsafiy va ijtimoiy mushohadalarga boy badiiy asarlar o'quvchilarda insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi. Chunki ulardagи voqelik shunchaki to'qimalar, uydirmalar emas, balki yuksak ma'naviyatga asoslangan voqelik, o'zbek xalqining o'ziga xos mentaliteti va qadriyatlar, badiiy asosda ask etganligi tufayli o'quvchini o'zligini tanishga undaydi. Yoshlar bunday asarlarni o'qib-o'rganish jarayonida voqealar va qahramonlarni tahlil hamda tadqiq qilar ekan, o'z xarakteriga ham tanqidiy yondashib, asar voqealariga yanada ongliroq munosabatda bo'ladi, ular orqali o'z-o'zini taftish etib yetarli xulosalar chiqarishga o'rganadi. Yoshlarning milliy ongi bevosita badiiy asarlardagi voqelikni badiiy idrok etish jarayonida vujudga keladi. O'quvchi asarni badiiy idrok etishi uchun asar yuzasidan o'zining mustaqil fikriga ega bo'lishi lozim. Mustaqil mulohaza yuritgan odam biror narsaga mehr qo'yadi, nimanidir inkor etadi va o'zida yaratishga, ijodga, kashf etishga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj uni harakatga undaydi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, badiiy asarni o'qituvchi ko'rsatmalariga tayangan holda emas, balki bevosita o'rtoqlari bilan bahs-



munozaralar jarayonida tahlil qilish lozim. Shundagina o‘quvchi o‘z qarashlarini hayotiy-ijtimoiy voqealarga tayangan tarzda tahlil etadi va uning milliy ongi va dunyoqarashi ham shakllanib, kamol topib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Jumaboyeva J. Hozirgi o‘zbek she’riyatining milliy o‘ziga xosligi. – T.: 1984.
2. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: 2002.



OYDIN HOJIYEVA SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI

Asatjanova Iroda Maqsudbek qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoirasi Oydin Hojiyeva ijodidagi tabiat va inson ruhiyati tasviri tahlil qilinadi. Shoira she’riyatida insonning his-tug‘ulari, o‘y-kechimnalarini tabiat ashyolari orqali ochib beriladi, tabiat tasviri ko‘ngildagi dardli xotiralarni ochib beruvchi ramziy belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Oydin Hojiyevaning she’rlarida tabiat tasviri va ijodkor ruhiyati mutanosib ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: lirk tasvir, tabiat shyorlari, ijodiy metod, lirk chizgi, metaforik xarakter, badiiy tasvir

Inson umri tabiat bilan chambarchas bog‘liq, u azal-azaldan tabiatning shaydosi, - oshnosidir. Tabiat abadiy rivojlanadi, tobora yangilanish bilan birga o‘z-o‘zini takrorlab boradi. “She’riyat ham, - deb yozadi adabiyotshunos Ibrohim G‘ofurov “Lirikaning yuragi” nomli kitobida, - azal boshdan doimo tabiatga intilgan va ergashgan, uning qoshida doimo hayratlanib turgan, undan aql bovar qilmas musiqa, ohang, aql bovar qilmas ranglar ochgan. Xalqning dahosi to‘rt qator qo‘sish boshsa, avvalgi ikki qatorini albatta tabiatdan oladi...”

Iste’dodli shoira Oydin Hojiyeva lirkasida ham tabiat bilan inson hamohangligi, tabiatga muhabbatning kuylanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yerni uyqu devi aldab, muzlatar,
Jonini ilitgay Qavs yaxobi.¹
Qari, soqov yerni qayta so‘zlatar
Dehqon yuragining mayin oftobi.²

Tabiat marhamtli, unda fasllar aylanib kelaveradi. Odadta, fasllar silsilasida qahraton qish o‘lim nafasini olib keladi. Shoira satrlarida esa tabiat “o‘lmaydi”, uni “uyqu devi” aldab muzlatadi. Bunday ertaknamo chizilgan lirk tasvir she’rxonni sehrlaydi. Yaxob suvining og‘ushida esa yerning “joni iliysi”. Ya’ni, ezgu niyatarning, qutlug‘ kunlarning ko‘zlarini xuddi sehrlangandey oppoq uyquga cho‘madi. Lekin u abadiy emas. Tabiat “dehqon yuragining mayin oftobi” dan iliqlik olib yana tilga kiradi. Shoira dehqon obrazi orqali xalqimiz bag‘riga yashiringan o‘zlikni she’rxonga anglatmoqchi. Dehqon – zahmatkash, sodda, ayni paytda, odamzodga xos mehr-oqibat va hamiyatni, birdamlilikni o‘zida mujassamlashtirgan shaxs. Shuning uchun ham uning yuragi “mayin oftobli”. Ushbu lirk chizgi shoiraning inson va tabiat rishtalarini, ifoda etishdagi ijodiy metodi sifatida ko‘zga tashlanadi.

“Inson umri tabiat bilan chambarchas bog‘liq ekan, tabiatga sof shoirona qarash, uni shoirona tushunish har qanday kishini hayajonga soladi, o‘ylantirib qo‘yadi.”³ Oydin Hojiyeva har bir she’rida tabiatni so‘zlatadi, hatto ba’zi she’rlarida atrof-muhit, butun boshli tabiat odamga aylanadi, ular odamlardan ko‘ra jonliroq, odamlardan ko‘ra qalbi borroqday tuyuladi. Shoiraning badiiy talqinida tabiat ohanglari, tovushlari, ranglari bevosita inson ruhiyati iqlimlarining zohiriy ko‘rinishidir.

Qoqigullar oyna tutib oftobga,
Yuraklar tushadi toshqin girdobga.
Ranglar tilga kirar, suv sayron bulbul,
Bukri tollarning ham chakkasida gul.⁴

Gul, oftob, suv, bulbul, tol – barchasi shunchaki tabiat ashyolari emas, balki badiiy detallardir. Oydin Hojiyeva ularning har birini timsolli ma’nolari bilan uzviy bog‘liqlab badiiy butunlik hosil qiladi. Gullar go‘zallik, ezungulik va shodlikning timsolidir. Oftob esa hayot abadiyligining belgisi. Yurakning toshqin girdobga tushishi uning katta intilish-ishtiyoq bilan yuksaklarga ko‘tarilishidir. Xo‘sh, nega shoira suvni “sayron bulbul” ga qiyoslayapti? Chunki lirk qahramonning nigohi ko‘klarga qaratilgan. Olis manzillarga tikilgan bu nigohda esa kelajakka umid bor. Suv abadiy

¹ Yaxob – hosildorlikni oshirish uchun ekin maydoniga qishda qo‘yiladigan suv

² Хожиева Ойдин. Шом шуълалари: Сайланма. Шеърлар, достонлар. – Т: “Sharq”, 2010. – 156-бет.

³ Ганиев Илҳом. Виждан - барча қадриятлар отаси.- Тошкент: Академнашр, 2013. 118-бет

⁴ Хожиева Ойдин. Назокат: Шеърлар, достон, қасида, бадиалар, ўйлар. - «Шарқ». 2007. - 34-бет



oqishi, to‘xtab qolmasligi kerak. Gullarning bukri tollarga qadalganligining boisi ham shundan.

Oydin Hojiyevaning qaysi bir she’riga murojaat etmaylik, tabiat bilan bog‘liq poetik ko‘chimlarga duch kelamiz. Bu esa shoiraning o‘ziga xos mahorat uslubini ko’rsatadi. SHoira tabiat va inson tasvirini bayon etish bilan birgalikda, xalqimizga xos bo‘lgan xususiyat va tafakkur qirralarini ham uyg‘un tarzda ochib beradi. U tabiatdagi har bir o‘zgarish va hodisani inson taqdiri bilan bog‘laydi. Shuning uchun hayotdagi u yoki bu o‘zgarishlar quvonch yoki qayg‘u, alam, yo‘qolishlar tabiat fasllariga, tabiat manzaralari va predmetlariga qiyosan ochib beriladi. Zero, ilohiy boshpanamiz bo‘lgan tabiat - azaldan shoirlarning ilhom manbayi bo‘lib kelgan.

Foydalanalgan adabiyotlar ro‘yhati :

1. Фанийев Илҳом. Виждон - барча қадриятлар отаси.- Тошкент: Академнашр, 2013.
2. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. - Т.: Фан, 1979
3. Ҳожиева Ойдин. Шом шуълалари: Сайланма. Шеърлар, достонлар. – Т: “Sharq”, 2010.
4. Sharipov A. Yulduzli osmon sehri. T.: adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ЗЗ-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(8-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000